



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY
STATISTIKA QO‘MITASI
XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

**XORAZM VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA
MA’LUMOT**

2025- yil 1- mart holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari
markazi ma’lumotlar bazasi asosida
shakllantirildi*




So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 24 684 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 21 330 ta). Shuningdek, ushbu davrga 39 119 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 111,4 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar *(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2025- yil yanvar-fevral oylarida)


2025- yil yanvar-fevral oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1325 tani tashkil etdi.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o‘sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Qo‘shko‘pir tumanida (68 taga), Yangiariq (61 taga), Gurlan (49 taga), Bog‘ot (46 taga), Yangibozor (34 taga) va Urganch tumanlarida (21 taga) o‘shish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko‘rsatkichni qishloq va o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 154 taga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 145 taga, savdoda – 73 taga ko‘paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- mart holatiga 24 684 tani tashkil etdi, ulardan 21 467 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,3 foiz, sanoat – 14,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,3 foiz, qurilish – 5,8 foiz. Tumanlar kesimida esa eng ko'pi Urganch shahrida – 19,9 foiz, Urganch – 11,1 foiz, Xonqa – 8,0 foiz, Qo'shko'pir – 7,4 foiz va Xiva shahrida – 7,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025- yil yanvar-fevral oylarida)


Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 187 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 182 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- mart holatiga 21 467 tani tashkil etdi, ulardan 21 330 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,1 foiz, sanoat – 16,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,2 foiz, qurilish – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,5 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, boshqa turlar – 11,4 foiz.





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Viloyat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2025- yil yanvar-fevral oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 300 tadan 374 taga (o'sish 74 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 118 tadan 272 taga (o'sish 154 taga) ko'paydi.




(2025- yil 1- mart holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (19,6 foiz), Urganch (19,5 foiz), Xonqa (8,1 foiz) va Qo'shko'pir (7,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60,9 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar
(2025- yil 1- mart holatiga)

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar–qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Tumanlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Gurlan (16,0 foiz), Urganch (11,1 foiz) va Xonqa (10,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)



(2025- yil 1-mart holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish, 0,6 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, 0,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Urganch sh.	615
Urganch	393
Xonqa	345
Qo'shko'pir	312
Shovot	260
Xiva	253
Xiva sh.	237
Yangiariq	211
Gurlan	208
Bog'ot	188
Hazorasp	185
Tuproqqal'a	134
Yangibozor	112

Yillar kesimida soni
(birlikda)



3 360

Ishlab chiqarish
sanoati



53

Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



21

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



19




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



(2025- yil 1- mart holatiga)

Viloyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 22,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 20,7 foiz ulushni tashkil etdi.



(2025-yil 1-mart holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 7 953 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,2 foiz ulushni tashkil etdi;


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 24,2 foiz ulushni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 12,6 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Urganch sh.	1 551
Urganch	978
Bog'ot	652
Yangiariq	610
Xiva sh.	572
Hazorasp	568
Xonqa	547
Shovot	537
Qo'shko'pir	517
Xiva	501
Gurlan	379
Yangibozor	374
Tuproqqal'a	188

Yillar kesimida soni
(birlikda)



5 037

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

1 929

1 008

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025- yil 1- mart holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga 1 564 taga yetib, ularning 1 549 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,8 foiz ulushini tashkil etdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 14,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni
(birlikda)

Urganch sh.	378
Xiva sh.	276
Urganch	155
Shovot	94
Xonqa	87
Yangiariq	81
Bog'ot	81
Gurlan	76
Qo'shko'pir	75
Xiva	75
Yangibozor	70
Hazorasp	62
Tuproqqal'a	54

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

2025- yil 1- mart holatiga axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar:

-kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 58,3 foizini;


-axborot xizmatlari va nashirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 36,5 foizini;

-ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 5,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Urganch sh.	127
Xonqa	42
Urganch	37
Xiva sh.	31
Yangiariq	27
Qo'shko'pir	24
Xiva	20
Shovot	18
Bog'ot	16
Hazorasp	14
Gurlan	14
Yangibozor	8
Tuproqqal'a	6

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	122	102	Aloqa
Noshirlik faoliyati	75	65	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat
Kino-videofilmlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	17	3	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish

(2025- yil 1- mart holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 534 ta yoki 72,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 95,5 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;



- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,7 foizni tashkil etdi;

- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Urganch sh.	197
Hazorasp	189
Xonqa	123
Urganch	103
Bog'ot	56
Shovot	47
Qo'shko'pir	46
Xiva sh.	46
Xiva	45
Gurlan	44
Yangiariq	28
Yangibozor	16
Tuproqqal'a	13

2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 3,9 foiz ulushini tashkil etdi.



Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 78,1 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 19,9 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,5 foizni;

- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,5 foizni tashkil etgan.



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot
(2025- yil 1- mart holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.



(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

Amaldagi 21 467 ta tijorat korxonalar va tashkilotlaridan 2025- yil 1- mart holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 13 640 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,7 foiz, sanoat – 14,1 foiz, qurilish – 8,3 foiz.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

2025- yil 1- mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Urganch shahrida – 1 011 ta, Xonqa – 487 ta va Shovot tumanida – 392 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 1 575 ta, sanoatda – 687 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 278 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 270 ta.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra 3 777 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,5 foiz, sanoat – 21,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 18,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,3 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Urganch tumani – 13,7 foiz, Urganch – 13,7 foiz va Xiva shahrida – 11,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)


Viloyatda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Tumanlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Shovot (12,8 foiz), Xonqa (11,5 foiz) va Yangibozor (10,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 147 ta korxonalardan 56 tasi qo'shma korxonalar va 91 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 12,2 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 147 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkmaniston (ulushi 19,0 foiz), Turkiya (ulushi 17,0 foiz) va Xitoy (ulushi 10,2 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2025- yil 1- mart holatiga, birlikda)



Viloyatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarining jami soniga nisbatan eng katta ulushi Urganch shahrida 36,1 foiz, tumanlar orasida esa Urganch – 9,5 foiz, Shovot – 8,8 foiz va Xonqa – 7,5 foiz to'g'ri keladi.

(2025- yil 1- mart holatiga ,birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- mart holatiga, birlikda)



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- mart** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, Soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari o'zaro birxillashtirildi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Agar tashkilotning boshqa rasmiy holatini
izlayotgan bo'lsangiz, ushbu maydonda
Rasmiy holatini kiriting

Ochish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
2023 yil



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (62)22-4-65-11